

EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

**Abdullayev Oybek Shakirjanovich
Xabibullayeva Omadoy Otobek qizi**

Annotatsiya: Atrof-muhitni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishini oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho‘llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi masalalarni hal etish yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Atrof-muhitni muxofaza qilish, o‘simglik va hayvonot dunyosini muxofaza qilish, “Yashil makon” umummilliyligi loyihasi, atmosfera havosining ifloslanishi, tuproq erroziyasi, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishini oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho‘llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi masalalarni hal etish hozirgi kunda eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yurtimizda ham atrof-muhit muammolarini o‘rganish, ularni hal etish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga, o‘simglik va hayvonot dunyosini muxofaza qilishga, atmosfera havosini muxofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, xosil bo‘layotgan chiqindilarni bartaraf etish xamda ekologik ta’limni joriy etishga qaratilgan meyoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan ekologiya sohasida keng ko‘lamli islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berildi.

Respublikada “Yashil makon” umummilliyligi loyihasi doirasida daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida xaritaldar ishlab chiqish belgilandi.

Farmon bilan davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirildi. Moratoriyl talablarini buzganlik uchun ma’muriy jarimalar miqdori besh barobar, o‘simglik dunyosiga yetkazilgan zarar summalari ikki barobar oshirildi.

Mamlakatimizda atrof-muxitni muxofaza qilish va tiklash, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida “Yashil makon” umummilliyligi loyihasining amalga oshirilishi bu borada muhim qadam bo‘ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlari ekish, shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni hozirgi 8% dan

30% ga oshirish rejalashtirilgan.

Barcha shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo‘yicha keng ko‘lamda ish olib borilayotganligi tahsinga sazovor. Shu bilan birga, har yili bahor va kuz oylarida ekiladigan daraxtlar parvarishiga, ularning keyingi taqdiriga ham e’tibor qaratilishi lozimligi belgilandi.

«Yashil makon» loyihasi doirasida Respublika bo‘yicha shu paytga qadar

82 mln 273 ming tup ko‘chat ekilgan. Bu haqda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan ma’lum qilindi.

Hududlarda ko‘chat ekilgan maydon, uni ekkan va tasarrufga olgan subyekt, sug‘orish tizimi, fotosurat va joylashuv lokatsiyalarni o‘z ichiga olgan

“Yashil makon” yagona elektron bazasi shakllantirilib, jami 28 nafar mutaxassis biriktirildi.

Shu kunga qadar tizimga 59 mln dona ekilgan turli xildagi manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari kiritildi. Bu elektron tizim hududlarda yangi ekiladigan ko‘chatlar monitoringini, ekilgan ko‘chatlarning nazorat mexanizmini onlayn rejimda tuman va shaharlar kesimida yuritadi.

Atrof-muxitga ta’sir ko‘rsatuvchi sanoat korxonalari tomonidan

atrof-muxitga ko‘rsatayotgan ta’sirlarini kamaytirish maqsadida korxona atrofiga 4-5 qator qilib ko‘chatlar ekilib, “Yashil belbog” lar tashkil qilinmoqda.

Mahalliy hokimliklar bilan birgalikda barcha toifadagi yer maydonlarida, jumladan, aholi tomorqasi, sug‘oriladigan va lalmi yerlar, cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarida mevali, yong‘oq mevali, uzum plantatsiyalariga ekilgan ko‘chat va qalamchalar “Yashil makon” elektron platformasiga kiritib borilmoqda.

“Yashil makon” umumilliy loyihasining hayotga tadbiq etilishi tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarning oldini olish borasida eng

muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Hech shubhasiz, yashil hududlarni kengaytirish, yashil maydonlar va jamoat parklarini tashkil etish atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtiribgina qolmay, balki atmosfera havosining ifloslanishi, tuproq erroziyasi, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi va ayni paytdagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘layotgan qum va chang bo‘ronlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Shu o‘rinda so‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqlimning o‘zgarishi, yillik o‘rtacha temperaturaning ko‘tarilishi, mavsumiy qurg‘oqchilik kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Amalga oshiralayotgan tizimli chora-tadbirlar qatorida “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda tasdiqlangan farmonida, birinchidan, “Yashil makon” umumilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish va respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish belgilangan.

Ikkinchidan, Orol dengizining qurigan tubida qo‘srimcha 500 ming gettar yashil maydonlarni barpo etib, 2026 yil yakuniga qadar ularning umumiylajmini 2,5 million gettarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish nazarda tutilgan.

“Yashil makon“ umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Uning doirasida kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko‘chatini ekishni maqsad qilganmiz. Bu umummilliy harakatning natijasi har bir mahallada ko‘rinishi kerak, bu savobli ishni havas bilan qilish kerak”, degan Prezident Shavkat Mirziyoyev.

“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishdan asosiy maqsad respublikada barqaror rivojlanishga erishishdan iborat. Shunday qilib, bugungi va kelajak avlodlarga musaffo O‘zbekistonni, toza atrof-muhitni, ekologik tahdidlardan holi bo‘lgan tog‘u vodiylar, daryo va ko‘llarni qoldirish mumkin. Bu esa O‘zbekistonning global barqaror rivojlanish va Yer tabiatini asrashga qo‘sishgan hissasi bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Natsionalniy doklad o sostoyanii okrujayushey sredi i ispolzovanii prirodnyx resursov v Respublike Uzbekistan. Tashkent, 2013
2. Y.V Novikov, R.I Beknazov, “Chelovek i okrujayushaya sreda” Moskva, 1980.
3. A.Ergashev Umumiy ekologiya Toshkent, 2003
4. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005.
5. Sh.Otaboev, M.Nabiev Inson va biosfera. Toshkent, O’qituvchi 1995.
6. Sh.Ataxanov, R.Akramboev Sharbatchilikdagi ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash O’zbekiston qishloq xo’jalik j. 2014 №6 40 b
7. S.Gaibnazarov Tog’-kon va neft-gaz sanoatida atrof-muhit muammoalri hamda ularning yechimlari Ekologiya xabarnomasi 2016 №3 38 b